Kitapxanashı hám paydalanıwshı ortasındaǵı ádep sálemlesiwden baslanadı. Bul etiketlik qaǵıydalarınıń júdá áhmiyetli kórinisi esaplanıp, paydalanıwshı menen kelisiminde bolatuǵın turaqlı munasábettiń muqabası bolıp tabıladı. Insan tábiyatındaǵı álpayımlıq hár kim ushın áhmiyetli, lekin kitapxanashı ushın birinshi náwbette turıwshı ózgeshelik bolıwı zárúr. Insaniylıqtıń nagíz ózi kitapxanashınıń hár qıylı taypadaǵı insanlar menen baylanıs ornata alıw qábiletin asıradı. Bir sóz benen aytqanda, kitapxanashı mámile kórkem ónerine iye shaxs bolıwı talap etiledi. «Júzinde mıyıq tartıwı bolmaǵan insan, dúkan ashpaǵanı maqul» delingen Qıtay xalıq maqalında. Sol maqaldı kitapxanashıǵa da qollanıw múmkin.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. J.Yuldashev., O'.Nosirov. Kutubxona – axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent: 2021. – 352 b.
2. M.Xudaybergenova. Házirgi kúndegi málimleme kitapxana isi tarawındaǵı aktual máseleler. https://doi.org/10.5281/zenodo.10890987
3. D.Айтымова. Кутубхона ахборот муассасалари фаолиятини ривожлантиришда кутубхоначи кадрларнинг роли. https://hemis.uzdsmi-nf.uz/science/publication-scientifical-edit? Id=339
4. Kutubxonachiga yordam: dayjest /Alisher Nayoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi; tuzuvchi M.Kamilova; muxarrir D.Mansurov; masul muxarrir U.Teshaeva – Toshkent: Alisher Nayoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2019. – 64 b.

REZYUME. Axborot – kutubxona xizmatining asosi hisoblanib, foydalanuvchilarga adabiyot va axborot bilan tez va sifatli xizmat ko'rsatishni maqsad etadi. Bunday xizmatga bibliografik, konsultativ, elektron xizmatlar, tematik tadbirlar va onlayn savol-javob kabi uslublar kirib, o'quvchi iihtiyojlarin bajarishga asoslangan.

РЕЗЮМЕ. Образование является тикарем библиотечного обслуживания и стремится предоставлять пользователям качественную и быструю услугу литературы и образования Такие услуги включают библиографические, консультативные, электронные услуги, тематические иллажи и онлайн-вопросы, ориентированные на удовлетворение потребностей читателей.

SUMMARY. Educational library service aims to provide a fast and high quality service to users of literature and education This service includes bibliographic, consultative, electronic services, thematic links and online surveys aimed at meeting the needs of readers.

QORAQALPOG'ISTONDA SAN'AT TA'LIMI RIVOJLANISHINING USTUVOR YO'NALISHLARI VA TENDENSIYALARI

Rajapbaev Batir Bekimbetovich – *assistent o'qituvchi*
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so'zlar: madaniy meros, estetik tarbiya, ijodiy tafakkur, milliy qadriyatlar, raqamli texnologiyalar, tasviriy san'at, amaliy san'at, badiiy ifoda, muzeylar (Savitskiy muzeyi), pedagog kadrlar, o'quv-metodik baza, zamonaviy ta'lim, xalq ijodi, ixtisoslashtirilgan maktablar, innovatsion metodika, multimediali ta'lim, madaniy identitet (o'zlik) tashabbuskorlik, ijodiy klublar, nazariya va amaliyot uyg'unligi, o'quv dasturlari, madaniyatni asrash.

Ключевые слова: культурное наследие, эстетическое воспитание, творческое мышление, национальные ценности, цифровые технологии, изобразительное искусство, прикладное искусство, художественное выражение, музеи (музей Савицкого), педагогические кадры, учебно-методическая база, современное образование, народное творчество, специализированные школы, инновационная методика, мультимедийное образование, культурная идентичность, инициативность, творческие клубы, гармония теории и практики, учебные программы, сохранение культуры.

Key words: cultural heritage, aesthetic education, creative thinking, national values, digital technologies, fine arts, applied arts, artistic expression, museums (Savitsky Museum), teaching staff, educational and methodological base, modern education, folk art, specialized schools, innovative methodology, multimedia education, cultural identity (identity), initiative, creative clubs, harmony of theory and practice, curricula, preservation of culture.

XXI asrda zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bu – ta'lim tizimining uzluksiz rivojlanishidir. Ayniqsa, san'at ta'limi sohasida amalga

oshirilayotgan islohotlar, yosh avlodni estetik tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. San’at orqali o‘quvchilarda did, tafakkur, tasavvur, va estetik qarashlar shakllanadi. Bu esa ularni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs sifatida voyaga yetishiga xizmat qiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida san’at ta’limi nafaqat madaniyatni asrash, balki milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy faollikni kuchaytirish kabi muhim ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi. Bu hududda san’atning ko‘p asrlik tarixiy ildizlari, xalq og‘zaki ijodi, urf-odat va an’analari bilan uyg‘unlashgan san’at ta’limi tizimi bugun yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan san’at va madaniyat sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, san’at ta’limi muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda, o‘quv dasturlar zamon talablari asosida yangilanmoqda, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishga alohida etibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, yosh istedodlarni aniqlash va ularni qo‘llab-quvvatlash tizimi ham shakllanmoqda. [1] Ushbu maqolada aynan Qoraqalpog‘iston Respublikasida san’at ta’limi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari va tendensiyalari haqida biroz tahlil qilamiz. San’at insoniyat ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lib, dunyoni ma’naviy anglashning maxsus turidir. San’at ta’limi hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda rivojlanib kelmoqda.

“San’at” tushunchasi deganimizda – biz insonning go‘zallik qonuniyatlari asosida borliqni badiiy o‘zlashtirish (va o‘zgartirish)ga qaratilgan yaratuvchilik faoliyati hamda uning natijasi sifatida vujudga kelgan jami narsalarni tushunamiz, ya’ni, go‘zallik qonunlari asosida mahorat va did bilan yaratilgan narsalarning hammasi san’atga aloqadordir.

San’atning ikki turi farqlanadi: amaliy va badiiy (nafis). Amaliy san’at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo‘zlik, libos yaratish kabi sohalar kirsa, badiiy san’at turlariga rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, kino, teatr, badiiy adabiyot kabilar mansub. Shuningdek, ifodali va tasviriy san’at turlari farqlanadi. Ba’zi san’at turlari tasvirlasa, boshqalari ifodalaydi. Aytaylik, musiqa-ifoda san’at kompozitor ohanglar orqali kechinmalarni ifodalaydi va shu ohanglar ruhiyatimizda muayyan bir kayfiyat hosil qiladi. Rassomlik bilan haykaltaroshlik tasviriy san’at turlari bo‘lib, unda biror manzara, holat musavvir qalbini junbishga keltirib, qalbida muayyan kechinmalarni qo‘zg‘atadi va musavvir o‘sha manzarani rang-tasvirga muhrlaydi. Shu tariqa san’at asarlari ruhiyatimizga oziq beradi. San’atning turli ko‘rinishlari voqelikni, undagi hodisa, narsa va holatlarni o‘ziga xos usullar yordamida aks ettiradi. Masalan, musiqada tovushlar, ularning o‘zaro bog‘lanishi, uyg‘unligi orqali; badiiy adabiyot so‘z, obrazlar orqali; tasviriy san’atda bo‘yoqlar yordamida muayyan hissiy obraz gavdalantiriladi; teatrda pesa qahramonlarining siymosi aktyorlar orqali namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda san’at ta’limining pedagogik va ijtimoiy ahamiyati – bu nafaqat o‘quvchilarga rasm, musiqa, teatr yoki raqs singari fanlarni o‘rgatishdir, balki ularning ma’naviy olamini shakllantirish, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish vositasidir. San’at inson qalbini uyg‘otadi, jamiyatga estetik mezonlar asosida yondashishni o‘rgatadi.

Yosh avlodni Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda san’at fanlarining tutgan o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, hozirgi globallashuv sharoitida madaniy o‘zlikni saqlab qolish, madaniy merosni yoshlar ongiga singdirish san’at ta’limining ustuvor vazifalaridandir. Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, san’at fanlari orqali o‘quvchilarning nutqi, tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, estetik didi rivojlanadi. Bu fanlar maktabgacha yoshdagi bolalardan boshlab, oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, san’at ta’limi orqali yoshlar orasida ijodkorlik, tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash, jamoa bilan ishlash, ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalari ketma-ketlikda shakllanib boradi.

Qoraqalpog‘istonda san’at ta’limining tarixiy asoslari va hozirgi holatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak Qoraqalpog‘iston hududida san’at, hunarmandchilik va madaniyat qadimdan rivojlangan. Taniqli olimlarimiz, filologiya fanlari doktorlari, professor K.Ayimbetov, K.Mambetov, S.Baxadirova, san’at fanlari nomzodlari O.Ollamuratov, T. dambaevalar o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarida milliy soz san’atining kelib chiqishini G‘oztug‘on jirov, So‘ppasli Supura jirov, Qo‘rqit ota davrlaridan boshlaydi.

So‘ppasli Supura jirov bilan Qo‘rqit otaning jirovchilik san’atini XVIII-XIX-XX asrlarda yashagan Jiyen jirov, Xolmurod, Qozoqboy, erboy, Jiyemurod, Murodilla, Aytuo‘ar, Qobil, Bekmurod, Qurbonboy, erpo‘lat, Xo‘jambergan-Xo‘kiz jirov, Esemurod, Qiyos, Paleke, Otamurod, O‘teniyaz, Qulamed, Orzimbet, Jumabay, Shomurod, Jaqsiliq jirovlar davom ettirgan. Ular ijro etgan «Alpomish», «Qo‘blon», «edige», «Sharyar», «erqo‘say», «ersho‘ra», «ersayim», «Qirqqiz» dostonlari, terma-

to‘lg‘ovlari xalq tomonidan ijobiy kutib olingan. [2]

Xalq og‘zaki ijodi, amaliy san’at, qo‘shiq va raqs an’analari bu yurt aholisining boy madaniy merosini tashkil qiladi.

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘istonda Nukus shahrida joylashgan I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyi san’achunoslik rivojida alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda esa Qoraqalpog‘istonda 26 dan ortiq bolalar san’at va musiqa maktablari, Nukus davlat pedagogika instituti musiqiy ta’lim kafedrasi, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, ixtisoslashtirilgan musiqa va san’at maktablari hamda opera kabi o‘quv yurtlarida zamonaviy san’at ta’limi berilmoqda.

Bugungi kunda san’at ta’limini rivojlantirishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab olingan:

a) Raqamli texnologiyalarni joriy etish. Raqamli san’at, animatsiya, grafik dizayn yo‘nalishlari

bo‘yicha ta’lim berish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu yoshlarni zamonaviy ijodga jalb etadi.

b) Milliy san’atni saqlash va targ‘ib qilish. Qoraqalpoq xalqining an’anaviy cholg‘ulari, qo‘shiqlari, naqsh san’ati va liboslari o‘quv dasturlariga kiritilmoqda.

ts) O’quv-uslubiy bazani modernizatsiya qilish. Darsliklar, videodarslar, zamonaviy o‘quv uslublari bilan jihozlash – bu bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

d) O’qituvchilar malakasini oshirish. Har yili respublika va xorijiy seminar-treninglarda san’at pedagoglari ishtirok etib kelmoqda, shuningdek san’at ta’limi sohasida kuzatilayotgan tendensiyalar quyidagilardir:

- Ixtisoslashtirilgan san’at maktablari tarmog‘ining kengayishi;
- Xalqaro loyihalarning jalb qilinishi;
- Tashabbuskorlik va ijodiy klublarning ko‘payishi;
- Ijodiy ta’limning yangi formatlari.

Bu tendensiyalar san’at ta’limining sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. [3]

Qoraqalpog‘istonda san’at ta’limi rivojlanishi - bu nafaqat madaniyatni saqlash va davom ettirish, balki jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan yetuk, ijodiy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirish jarayonidir. San’at ta’limi orqali o‘quvchilar estetik bilim, milliy qadriyatlar, madaniy meros, badiiy ifoda va ijodiy tafakkur kabi muhim ko‘nikmalarni egallaydilar. Bu esa ularning shaxsiy kamolotiga, ijtimoiy faolligiga va ma’naviy boyligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida san’at ta’limi tizimi tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, bugungi kunda yangi bosqichda taraqqiy etmoqda. Mavjud san’at maktablari, oliy o‘quv yurtlari, shuningdek, ijodiy to‘garaklar va xalq amaliyoti bilan integratsiyalashgan ta’lim shakllari bu tizimni yanada boyitmoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan loyihalar, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlik ham ushbu sohaga yangi turtki bermoqda.

Biroq, san’at ta’limida hali ham yechimini kutayotgan muammolar bor: malakali pedagoglar yetishmovchiligi, o‘quv-metodik bazaning eskirganligi, zamonaviy texnik vositalarning yetishmasligi, ixtisoslashgan darsliklarning kamligi shular jumlasidandir. Shuningdek, ta’limda amaliy va nazariy jihatlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlash, xalq san’ati va zamonaviy yo‘nalishlar o‘rtasida uyg‘unlik yaratish masalasi ham dolzarbdir.

Kelgusida quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib borish zarur deb hisoblaymiz:

- san’at ta’limi muassasalarining infratuzilmasini yanada rivojlantirish;
- pedagog kadrlar malakasini muntazam oshirish;
- innovatsion va ijodiy metodikalarni ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish;
- zamonaviy texnologiyalarga asoslangan multimediya vositalari bilan ta’minlash;
- xalq san’ati elementlarini yangi avlodga zamonaviy formatda yetkazish.

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog‘istonda san’at ta’limi tizimi o‘zining ulkan salohiyatiga ega. Agar mavjud imkoniyatlar to‘g‘ri yo‘naltirilsa, san’at ta’limi nafaqat hudud miqyosida, balki respublika va xalqaro darajada ham raqobatbardosh bo‘lgan, kuchli pedagogik maktabga aylanishi mumkin. Ushbu maqolada bildirilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ushbu sohaning yanada takomillashuviga xizmat qiladi, deb ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3775-son qarori, 2018-yil.
2. T.A. Qodirova, “San’achunoslik asoslari”, Toshkent, 2020.
3. Nukus DPI ilmiy to‘plamlari, 2021–2024.
4. “Qoraqalpog‘istonda madaniyat va san’at rivoji”, seminar materiallari, 2023.
5. Karakalpakstan entsytslopedia, Nukus: Bilim, 2019.

6. Tursunbaeva G.T., “Zamonaviy san’at ta’limi tizimi”, Toshkent, 2021.
7. www.stat.uz, www.edu.uz

REZYUME. Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida san’at ta’limi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari va tendensiyalari tahlil etilgan. Muallif hududda san’at ta’limining tarixiy ildizlari, madaniy merosi va amaldagi holati asosida mavjud yutuqlar va muammolarni yoritib bergan. Xususan, san’at ta’limi tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish, milliy san’atni targ‘ib qilish, pedagoglar malakasini oshirish va ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada san’at ta’limining yosh avlod tarbiyasidagi estetik, axloqiy va ijtimoiy ahamiyati asoslab berilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной стате проанализировани приоритетные направления и тенденци развития художественного образования в Республике Каракалпакстан. Автор, опираясь на исторические корни искусства в регионе, а также на современное состояние системы, раскрывает достигнутые успехи и сушествуюшие проблемы. Особое внимание уделяется внедрению цифровых технологий, популяризации национального искусства, повышению квалификации педагогов и модернизации учебного процесса. Также в стате подчёркивается эстетическое, нравственное и социалное значение художественного образования в воспитании молодёжи.

SUMMARY. This artitsle analyzes the priority diretstions and trends in the development of art edutsation in the Republits of Karakalpakstan. The author highlights both the historitsal foundations and the tsurrent state of the region’s art edutsation system, identifying key achievements and existing challenges. Spetsial emphasis is platsed on the integration of digital technologies, promotion of national art, professional development of edutsators, and modernization of edutsational pratstitses. The artitsle also outlines the aesthetits, moral, and sotsial importantse of art edutsation in shaping the younger generation.

MÁDENIYAT MÁKEMELERINDE BOS WAQÍTTÍ SHÓLKEMLESTIRIWDIŃ ÁHMIYETI

G.A.Saparbaeva – *docent*
Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat institutı Nókis filialı

Tayanch so‘zlar: madaniyat, san’at, mana’viyat, bo’sh vaqt, to’garak, ijodiy, dam olish.
Ключевые слова: искусство, духовность, досуг, кружок, творчество, отдых.
Key words: art, spirituality, leisure time, club, creative, recreation.

JańaÓzbekstannıń mádeniy hám ekonomikalıq rawajlanıw nátiyjesinde orın alǵan qatnasıqlardan ibarat sociallıq-ekonomikalıq, sociallıq-mádeniy hám mádeniy dem alıwdı shólkemlestiriw ózgesheliklerińiń turli modellerinde úlken ózgerisler tiykarında zaman talabı bolıp tabılmaqta.

Ózbekstanımızda ámelge asırılıp atırǵan misli kórilmegen ózgerisler hám shın mánisindegi insan máplerin gózleytuǵın reformalardıń gúwası hám qatnasıwshısı bolıp turmız. Haqıyqatında da, mámleketimizdiń jańa kelbeti qáliplespekte. “Jańalanıp atırǵan Ózbekstan dúnya jámiyetchiligine ashıq mámleket sıpatında kirip barmaqta. Jańa Ózbekstandı qurıw, mámleketimizde demokratiyalıq, huqıqıy, adamgershilikli, ádil, sociallıq mámleketti qurıw “Insan - jámiet - mámleket”,“Insan qádiri ushın”, “Xalıq mámleketlik uyımlarǵa emes, mámleketlik uyımlar xalıqqa xızmet etiwi kerek”, “Mámleket - insan ushın” degen iygilikli ideya hám principler tiykarında alıp barılmaqta”. [1.3]

Atap aytqanda, sociallıq ortalıqtıń ajıralmas bólegi sıpatında Ózbekstandaǵı mádeniyat hám kórkem óner tarawı mákemeleriniń iskerliginde jámiyetlik turmıstıń barlıq tarawlarındaǵı siyaqlı túpkilikli ózgerisler júz bermekte. Hár bir adamnıń ulıwma jámiyettiń qádiriyat baǵdarları, turmıslıq maqsetleri ózgerip barmaqta. Mádeniyat mákemeleri iskerliginde sheshimin tapqan wazıypalar: jámiyettegi insanlardıń bos waqtın mazmunlı ótkeriw, olardı zárúrli xabarlar menen tanıstırıw,mánáwiy jetikligin támiyinlewden ibarat bolsa, tiykarınan bos waqıt haqqında ilimiy kóz qarasta - bul insannıń turmıslıq funkciyaların qayta tiklewge hám fiziologiyalıq mútájliklerin ámelge asırıw ushın zárúrli bolǵan waqıt dep esaplanadı. Sonıń menen bir qatarda, bos waqıttı ámelge asırıwda shaxstıń o‘z qálewine qaray ma’náwiy hám fizikalıq rawajlanıwı, dem alıwı uchun jumsalatuǵın waqıt bolǵanlıǵı ushın shaxstıń erkin iskerlik hám kamalatı ushın zárúrli bolǵan haqıyıqy baylıǵı , sonıń ishinde, mádeniy dem alıwdı shólkemlestiriwshi mádeniyat mákemeleri xızmetkerleri hám professional